

**AKMEOLOGIK MOTIVATSIYA VA UNI BO‘LAJAK
JISMONIY TARBIYA O‘QITUVCHILARIDA RIVOJLANTIRISHNING
PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK ASOSLARI**

Parmonov A.A

Qo‘qon Davlat universiteti katta o‘qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.21769202>

Annotatsiya. Ushbu maqolada pedagogikaning rivojlanishi insonning ichki salohiyatiga e‘tiborni kuchaytirish, shaxsning ijodiy o‘z-o‘zini rivojlantirishiga yordam beradigan ta‘lim muhitini yaratish bilan tavsiflanadi. Oliy ta‘lim tizimida ijodiy tafakkuri rivojlangan aqlli, tashabbuskor mutaxassislarni tayyorlashga bo‘lgan ehtiyoj va ularni rivojlantirish kabi masalalar yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Jismoniy tarbiya, sport, tarbiya, motivatsiya, motiv, innovatsiya, pedagogika, psixologiya, aksiologiya, akmeologiya

**АКМЕОЛОГИЧЕСКАЯ МОТИВАЦИЯ И ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ И
ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ЕЕ РАЗВИТИЯ У БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ
ФИЗИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ**

Пармонов А.А.

Старший преподаватель Кокандского государственного университета

Аннотация. В данной статье описывается развитие педагогики как процесс повышения внимания к внутреннему потенциалу человека, создания образовательной среды, способствующей творческому саморазвитию личности. Подчеркивается необходимость подготовки в системе высшего образования интеллектуальных, предприимчивых специалистов с развитым творческим мышлением и их развития.

Ключевые слова: физическое воспитание, спорт, образование, мотивация, мотив, инновации, педагогика, психология, аксиология, акмеология

**ACMEOLOGICAL MOTIVATION AND PEDAGOGICAL AND
PSYCHOLOGICAL FOUNDATIONS OF ITS DEVELOPMENT IN FUTURE
PHYSICAL EDUCATION TEACHERS**

Parmonov A.A

Senior lecturer of Kokand State University

Abstract. This article describes the development of pedagogy as a process of increasing attention to the internal potential of a person, creating an educational environment that promotes creative self-development of the individual. The need to train intelligent, enterprising specialists with developed creative thinking in the higher education system and their development are highlighted.

Keywords: Physical education, sports, education, motivation, motive, innovation, pedagogy, psychology, axiology, acmeology

KIRISH

Zamonaviy pedagogikada akmeologik motivatsiyani chuqurroq tadqiq etish, uni bo‘lajak o‘qituvchilarda rivojlantirishning pedagogik, psixologik va sotsiologik jihatlarini o‘rganish vazifalarini dolzarb masalaga aylantirmoqda. Shu bois, bugungi kunda bo‘lajak kadrlarni tayyorlashda va ularning kasbiy yuksaltirishda akmeologik yondashuvning ahamiyati ortib

bormoqda. Bu orqali ularni yuqoriga intilishga, tizimli va izchil ravishda kamolotga yo‘naltirish ishlariga alohida urg‘u berilmoqda. Ayniqsa bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchilarida akmeologik motivatsiyani rivojlantirish va bu orqali ularning kasbiy tayyorgarligini professional darajaga olib chiqish ustuvor vazifalardan biri bo‘lib qolmoqda.

Zamonaviy pedagogikaning rivojlanishi insonning ichki salohiyatiga e‘tiborni kuchaytirish, shaxsning ijodiy o‘z-o‘zini rivojlantirishiga yordam beradigan ta‘lim muhitini yaratish bilan tavsiflanadi. Oliy ta‘lim tizimida ijodiy tafakkuri rivojlangan aqlli, tashabbuskor mutaxassislarni tayyorlashga bo‘lgan ehtiyoj, o‘quv jarayonidan norozilikning kuchayishi, talabalarning kasbiy jihatdan muhim fazilatlari va qobiliyatlarini rivojlantirishga faoliyatiga kerakli e‘tibor bermaganligi, ijodiy o‘z-o‘zini rivojlantirish qobiliyatini shakllantirish darajasiga ham ko‘p narsaga bog‘liqdir. Shuning uchun bo‘lajak o‘qituvchilarning akmeologik pozitsiyani shakllantirish, pedagogik kompetentligi va pedagogik ko‘nikmalari orqali namoyon bo‘lishi mumkin.

TADQIQOT MATERIALLARI VA METODOLOGIYASI

Buning uchun avvalo akmeologiya va akmeologik motivatsiya tushunchalarining mazmun-mohiyatini aniqlashtirib olish kerak bo‘ladi. Akme – yuksak daraja degan ma‘noni anglatadi. Akmeologik motivatsiya esa, inson va jamoalarning o‘z taraqqiyotida yuksak darajaga erishishiga yo‘naltiruvchi hisoblanadi.

Akmeologik motivatsiya orqali shaxs o‘zining shaxsiy rivojlanishiga, o‘shishiga va o‘z-o‘zini tarbiyalashiga motivlarni shakllantirish, undovchi omillarni aniqlashtirib olishiga aytiladi.

Akmeologiya yangi yo‘nalish bo‘lib, insonning yangi qirralarini ochib beradi. Akmeologiya grekcha akme – cho‘qqi, takomil, nimaningdir yuqori bosqichi, gullagan davri ma‘nolarini anglatadi. Tadqiqotlarga ko‘ra, “Akmeologiya - (grekcha *akme-cho‘qqi, takomil, nimaningdir yuqori bosqichi, gullagan davr* ma‘nolarini anglatadi) ilmu- fanning shunday yangi tarmog‘iki, u insonni o‘z taraqqiyoti dinamikasida, takomili hamda hayot-faoliyatining turli bosqichlarida o‘zidagi eng kuchli qobiliyatlarning namoyon qilishning kompleks masalalarini o‘rganadi”. Shuningdek, u insonning o‘ziga berilgan barcha imkoniyatlari va iqtidorini namoyon etish ma‘nosini anglatadi va kasbiy kamolotda mukammallik bosqichiga yetishning ob‘ektiv va sub‘ektiv omillari, uning o‘qishda yutuqlarga erishishi va rivojlanishi, shaxs faoliyatida, kasb-hunar ta‘limi tizimida, ta‘lim jarayonida yuksak darajaga erishishini o‘rganadi. Mazkur tushunchani birinchi marta fanga rus olimi N.A. Ribnikov tomonidan 1928 yilda kiritilgan bo‘lib, uning o‘zi bu fan predmetini yetuk insonlarning shakllanish jarayonidir, deb ta‘riflagan edi.

Akmeologik yondashuvdan foydalanishning asosiy maqsadi - mavjud har qanday qiyinchilik yoki muammolardan bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchisining o‘zi mustaqil ravishda chiqib keta olishi, unda jismoniy-sog‘lomlashtiruvchi sifatlar shunday rivojlansinki, hatto o‘zi mustaqil ravishda professional mutaxassis sifatida faoliyat yurita olishini ta‘minlash hisoblanadi. Tadqiqotchi olim N.V.Kuzminina fikricha, «maksimal yetuklik individ, shaxs rivojining cho‘qqisi va individual faoliyat bilan bog‘liq ekan, ana shu cho‘qqi yunonchada «akme» deyiladi va bu soha akmeologiya deb yuritiladi. Shu bilan birga, «akme»da insonning faoliyati bilan bog‘liq holatlar ham nazarda tutiladi. Jumladan, shaxsning «yulduzli» onlari yoki shunga yaqin jarayonlar. Ya‘ni, biror-bir sohada erishgan oliy yutuqlari»ni ham akmeologik o‘shish sifatida keltirib o‘tish mumkin.

Oliy ta‘lim muassasalarining eng muhim vazifalaridan biri – bu bo‘lajak o‘qituvchilarning, hamda mutaxassislarning kasbiy tayyorgarligini shakllantirishdir. Kasbiy tayyorgarlik o‘z-o‘zidan yuzaga kelmaydi balki aniq maqsadlar asosida rejalashtirilgan bo‘lishi lozim.

Shaxsda kasbiy tayyorgarlikning shakllanishida kasbga xos tassavvur, tushunchalarni tarkib topganligi bilan belgilansa, keyinchalik mutaxassislikka oid bilim, malaka va ko'nikmalarning o'zlashtirilishi, kasbiy sifatlarning qaror topish darajasi bilan izohlanadi.

TADQIQOT NATIJALARI

Akmeologiyani ilmiy muomalaga kirib kelishiga asos solgan psixolog B.G.Ananev, «insonning ruhiy bilish rivoji markazida dastlabki va so'nggi ontogenez, «chetroqda» esa insonning ko'proq ijodiyroq, samaraliroq ijtimoiy faol hayot fazasi bo'lishi mumkin», deydi. «Zamonaviy ilm-fanda insoniy yuksakliklarning «akme» kategoriyasi bilan bog'liq bir necha talqinlari mavjud. Jumladan, birinchi, «akme» — bu qisqagina hayot kesimini qamrab olsada, ko'p qirrali holat bo'lib, insonning har doim jamiyatda qanchalik o'z o'rniga ega ekanligi, uning biror-bir soha mutaxassisi sifatida olib borayotgan salmoqli faoliyati, shaxs sifatida esa uni o'rab turganlar bilan olib borgan ijtimoiy aloqasida qanchalik boy yoki qashshoqligi, turmush o'rtoq va ota-ona sifatida tayyorlik darajasi bilan bir qatorda yaxshi tomonga o'zgara olish darajasi va eng yashirin ezgu qobiliyatlarini ham ko'rsata olish darajasiga ham bog'liqdir».

Pedagog olim A.Daukeevaning fikricha, «akmeologik kompetentlik sub'ektning kasbiy rivojlanishini, har xil hayotiy sharoitlarda, turli sohalarida hal qiluvchi qarorlar qabul qila olish qobiliyatini, yutuqlarga erishish darajasining yuqoriligini ta'minlovchi harakatlarni bajara olishini, o'zida mavjud bo'lgan psixologik va akmeologik zaxiralarni to'la voqelikka aylantira oladigan qobiliyatlarini aks ettiradi. Shuningdek, u kasbiy faoliyat, kasbiy talablar, qadriyatli mo'ljallar, kasbiy o'zini o'zi baholash jarayonidagi sub'ekt shaxsiy talablarining ifodalanish darajasi» sifatida ta'riflanadi va baho beriladi.

Markaziy Osiyo mutafakkirlarining asarlaridagi akmeologik g'oyalarning asosiy mohiyati, axloqiy kamolot va mukammallik haqidagi g'oyalari ilm-fan, madaniyat, san'at, adabiyot, falsafa, diniy fikrlar taraqqiyoti insoniyat tafakkur xazinasiga qo'shilgan katta hissa bo'lib, asrlar mobaynida avlodlarimizni o'zining sermazmunligi, universalligi va insonparvarligi bilan hayratga solgan.

Abu Ali ibn Sinoning qarashlarida akmeshaxs tarbiyasining amalga oshirilishida shaxsiy ibratning ma'qulligi uqtiriladi. Uning fikricha, agar oila boshlig'i tajribasiz bo'lsa, u o'z oila a'zolarini yaxshi tarbiyalay olmaydi, oxir-oqibat u yaxshi ijobiy natijalarga erisha olmaydi, yomon tarbiya nafaqat ushbu oila, balki qo'shnilarga, mahalla-kuyga ham yomon ta'sir qilishi mumkin. Oiladagi bola tarbiyasi ota-onaning jamiyatda tutgan mavqeyidan qat'iy nazar, ularning birlamchi vazifasidir, deb hisoblaydi Ibn Sino. Ota-ona davlat boshlig'imi, yoki oddiy fuqaromi, baribir, u bola tarbiyasi borasida mas'uldir. Davlat boshliqlari, rahbarlar bola tarbiyasi xususida barchaga ibrat bo'lmoqlari lozim.

MUHOKAMA

Akmeologiyani predmetida shaxs individual faoliyatining barcha sohalarida erishgan maksimal yetuklikka ega bo'lishi lozim degan konsepsiya yuzaga kelgan. Maksimal yetuklik shaxs rivojining yuqori cho'qqisi va individual faoliyat bilan bog'liq ekan, demak ana shu cho'qqi yunonchada «akme» deyiladi va bu soha akmeologiya deb yuritiladi. Akmeologiya izchillik, ya'ni mukammallik cho'qqisiga intilish, bu - inson hayotining ajralmas xususiyati bo'lib, bu ibora orqali shaxsiy, kasbiy rivojlanish va o'zini-o'zi takomillashtirishga moyillik anglanadi. B.G.Ananevning fikricha, akmeologiyani ilmiy asosi, insonning rivojlanishida individ, shaxs, individuallik va sub'ektning hayot faoliyati haqidagi fanlar integratsiyasidan tashkil topgan. Akmeologiya predmeti-odamning ijodiy salohiyati bo'lib, u inson tomonidan o'ziga inoyat etilgan barcha

imkoniyatlar va iqtidorni qanday qilib, qanday shart-sharoitlarda, qaysi qonuniyatlar ta'sirida ro'yobga chiqarishini kompleks tarzda o'rganadi.

Bo'lajak o'qituvchilarda akmeologik pozitsiyani shakllantirishning amaldagi mazmuni pedagog mutaxassis shaxsiga qo'yilayotgan zamonaviy talablar doirasida takomillashtirilmaganligi, bu sohadagi ilmiy tadqiqot natijalarining to'laonli amaliyotga tatbiq etilmayotganligi, pedagogika oliygohlaridagi mutaxassislar tayyorlash jarayonidagi imkoniyatlari va mavjud holat diagnostikasidan kelib chiqib, mazkur ta'lim muassasalari o'qitish tizimiga innovatsion texnologiyalarning to'laonli joriy etilmayotganligi mavzuning muammosiga nisbatan chuqurroq yondashuvni talab etadi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, akmeologik motivatsiya bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchisining kasbiy kamolotga intilishini belgilovchi muhim ichki omil hisoblanadi. Akmeologiya va akmeologik motivatsiya tushunchalarining pedagogik-psixologik mohiyatini, shuningdek, ularning ilmiy ildizlarini (N.A. Ribnikov, N.V. Kuzmina, B.G. Ananov, A. Daukeeva) hamda Sharq mutafakkirlari merosidagi ildizlarini (jumladan, Abu Ali ibn Sino qarashlarini) chuqur tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, bo'lajak o'qituvchilarda akmeologik pozitsiyani shakllantirish zamonaviy talablar asosida tizimli takomillashtirilishi, ilmiy tadqiqot natijalari amaliyotga to'laonli tatbiq etilishi hamda innovatsion pedagogik texnologiyalar oliy ta'lim jarayoniga izchil joriy etilishi lozim. Ushbu yo'nalishda olib boriladigan keyingi tadqiqotlar bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarining kasbiy va shaxsiy yetuklikka erishishiga xizmat qiluvchi amaliy-metodik asoslarni ishlab chiqishga qaratilishi maqsadga muvofiqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. The Role Of The Acmeologist Approach In The Development Of Acmeological Motivation In Future Physical Education Teachers. Parmonov Akmal Abdupattayevich <https://www.gejournal.net/index.php/ijssir.2023> y.
2. Improving The System Of Training Teachers Of Future Physical Education And Introducing Innovative-Motivational Approaches To It. Parmonov Akmal Abdupattayevich. <https://www.gejournal.net/index.php/ijssir.2023> y
3. Abdupattayevich, P. A. (2022). Specific Methods And Tasks For The Physical Development Of Primary School Students With The Help Of Games. International Journal Of Social Science & Interdisciplinary Research Issn: 2277 -3630 Impact Factor: 7.429, 11(10), 331-333.
4. Abdupattayevich P. A. Technology Of Formation Of Akmeological Position In Future Teachers //World Bulletin Of Social Sciences. – 2021. – T. 5. – C. 112-115. <https://www.scholarexpress.net>
5. Талипджанов А. А., Нурматов Б. Б., Пармонов А. А. Учебно-Тренировочный Процесс По Футболу //International Conference: Problems And Scientific Solutions. – 2022. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7332922>
6. Improving The Effectiveness Of The Training Process Of Students. Parmonov Akmal Abdupattayevich. Issn 2277-3630 (Online), Published By International Journal Of Social Sciences & September-2023. <https://www.gejournal.net/index.php/ijssir>
7. Methodological Doctrine Of The Organization Of The Process Of Physical Education Through National Traditions. Vol 10 Issue 06, June 2021. Nurmatov Bakhrom

- Bektemirovich Parmonov Akmal Abdupattoevich. <https://ijiemr.org/downloads/volume-10/issue-6>
8. Improvement Of Akmeological Motivation Of Future Physical Education Teacher. Vol. 2 No. 12, December 2021. Issn: 2660-5570. <https://www.scholarzest.com>
 9. Specific Methods And Tasks For The Physical Development Of Primary School Students With The Help Of Games. Ijssir, Vol. 11, No. 10. October 2022. <https://www.gejournal.net/index.php/ijssir>
 10. Model For The Development Of Acmeological Motivation In Future Physical Education Teachers On The Basis Of An Axiological Approach. Nternational Scientific Conference " Innovative Trends In Science, Practice And Education" 2023 Munchen, (Germany)